



Kurbanov Eldar Ermamatovich,
*Guliston davlat universiteti,
yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari
e-mail: eldorgdu85@gmail.com*

YANGI O'ZBEKISTONNING TASHQI SIYOSAT STRATEGIYASI: MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA BARQAROR ALOQALARNI MUSTAHKAMLASH

Annotatsiya. Maqolada yurtimizda 2017–2021-yillarda olib borilgan tub burilishlarning maqsadi inson manfaatlariga qaratilgani, ayniqsa, “Harakatlar strategiyasi”da ham, “Taraqqiyot strategiyasi”da ham tashqi siyosatimiz ustuvorlik yo‘nalishlari Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlikparvarlikka, o‘zaro hamjihatlikka qaratilayotgani ilmiy faktlar bilan keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: strategiya, davlat va jamiyat qurilishi, konstruktiv xarakter, islohot, Yangi O‘zbekiston g‘oyasi, Markaziy Osiyo, xavfsizlik, harbiy-siyosiy mojaro, impuls.

Аннотация. В статье с научными фактами отмечается, что цель коренных преобразований, которые будут осуществляться в нашей стране в 2017–2021 гг., ориентирована на интересы человека, особенно в «Стратегии действий» и «Стратегии развития», приоритетные направления нашей внешней политики сосредоточены на миротворчестве и взаимной солидарности в центральноазиатском регионе.

Ключевые слова: стратегия, государственное и общественное строительство, созидательный характер, реформа, идея Нового Узбекистана, Центральная Азия, безопасность, военно-политический конфликт, импульс.

Annotation. The article with scientific facts notes that the goal of the fundamental changes that will be carried out in our country in 2017–2021 is focused on human interests, especially in the Action Strategy and the Development Strategy, the priority areas of our foreign policy are focused on peacekeeping and mutual solidarity in the Central Asian region.

Key words: strategy, state and public building, creative nature, reform, the idea of New Uzbekistan, Central Asia, security, military-political conflict, momentum.

Kirish. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi mamlakatimizda keyingi besh yil davomida amalga oshiriladigan islohotlarga asos soldi. Strategiya davlat va jamiyat qurilishi, qonun ustuvorligini ta‘minlash, iqtisodiyotni, ijtimoiy sohani rivojlantirish, shuningdek, xavfsizlikni ta‘minlash, o‘zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosatni amalga oshirish kabi muhim yo‘nalishlarni qamrab olgan edi.

Mutaxassislar fikricha, mamlakatimizda siyosiy islohotlar sohasida so‘nggi besh yilda “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” kontsepsiyasi hayotga tatbiq etildi, sud-huquq tizimini isloh qilish “Kuch – adolatda!” tamoyiliga asoslandi. Iqtisodiy islohotlar “Iqtisodiy mustaqillikka erishmasdan turib, siyosiy mustaqillikni ta‘minlab bo‘lmaydi” tamoyili asosida amalga oshirildi, ijtimoiy sohani rivojlantirish esa “Islohotlar islohot uchun emas, balki jamiyat manfaati uchun” tamoyilidan kelib chiqdi.

Xavfsizlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta‘minlash, tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar konstruktiv xarakterga ega bo‘ldi¹.

Islahotlar jamiyat hayotiga chuqur kirib bordi. Agar dalillarga murojaat etadigan bo‘lsak, jamiyatimizda keng aholi qatlamlarini qamrab olgan, odamlarni tashvishga solib kelgan majburiy mehnatga, ayniqsa, bolalar mehnatiga barham berilgani² yaqqol misol bo‘ladi. Shuningdek, uzoq yillar davomida fuqarolikdan mahrum bo‘lib kelgan yurtdoshlarimizga O‘zbekiston fuqaroligini berishning adolatli tizimi shakllandi. Mamlakatimiz iqtisodiyotida barqaror o‘sish sur‘atlari va aholi daromadlari ortishi ta‘minlanmoqda. Milliy valyutamizning erkin konvertatsiyasi yo‘lga qo‘yildi. Soliq siyosati sohasida keng miqyosdagi islohotlar boshlandi. Yurtimizda aholi o‘rtasida kambag‘allik mavjudligi ilk bor ochiq tan olinib, uni qisqartirish bo‘yicha milliy dasturlar ishlab chiqildi va hayotga izchil tatbiq etilmoqda³. Aniq ma‘lumotlarga qaraganda, 2016-yilning dekabr oyidan hozirgi kunga qadar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 97 ta farmoniga asosan, jami 23 ming 310 nafar fuqaroligi bo‘lmagan shaxs O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilingan⁴.

Mamlakatimizda 2017-yildan boshlangan yangilanishlar jarayoni Yangi O‘zbekiston g‘oyasi uchun muhim bo‘lgan siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy zaminlar yuzaga kelishiga olib keldi. Albatta, yurtimizda taraqqiyotning yangi bosqichi jahonda kechayotgan nobarqaror va murakkab, inqirozli hodisalar hamda milliy taraqqiyot tajribasi va uning natijalarining tizimli tahlili asosida amalga oshirilmoqda. Keng ko‘lamli islohotlar natijasida odamlarning ertangi istiqbolga ishonchi ortdi, inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash davlat hokimiyati faoliyatining pirovard maqsadiga aylandi.

Asosiy qism. Insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanish tarixi, bir-biriga bog‘liq bo‘lgan hozirgi dunyo voqeligi shundan dalolat beradiki, alohida

olingan bir davlatdagi hech bir mojaro uzoq vaqt davomida milliy chegaralar doirasida qolib ketmaydi. Bir qancha sabablarga ko‘ra bunday mojaro nazorat qilib bo‘lmaydigan darajada yoyilib ketishi muqarrar. Bu esa ertami-kechmi, qo‘shni davlatlar oldiga barcha salbiy oqibatlar bilan bir qatorda muammolarni ko‘ndalang qo‘yadi. Hatto mintaqadagi vaziyatni beqarorlashtirish darajasiga borib yetadi. O‘zbekiston nafaqat chegaradosh mamlakatlardagi, shuningdek, dunyodagi harbiy-siyosiy mojarolarni tinch siyosiy yo‘l bilan hal qilishga va ularning oldini olishga qaratilgan har qanday harakatlarni, amaliy qadamlarni qo‘llab-quvvatlabgina qolmay, bu borada amaliy takliflarni ilgari surmoqda.

Dastlab Harakatlar strategiyasida, endilikda Taraqqiyot strategiyasida⁵ belgilangan ustuvor yo‘nalishlar va muhim vazifalar milliy yoki mintaqaviy miqyosdagina emas, balki global darajada ulkan ahamiyatga molik xalqaro hujjatlar bilan uyg‘un va hamohangdir. Shu nuqtayi nazardan, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi O‘zbekiston bajarishni o‘z zimmasiga olgan BMT Barqaror taraqqiyot maqsadlarini mamlakatimiz hayotiga tatbiq etishning aniq milliy dasturi belgilab berildi⁶.

O‘tgan davr mobaynida Harakatlar strategiyasi doirasida xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, mutanosib, o‘zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosatni amalga oshirish borasida ham ulkan ishlar amalga oshirilib, qator ijobiy natijalarga erishildi. Xususan, mamlakatimiz mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasi qabul qilindi. Qurolli Kuchlarning tashkiliy tuzilmasi, jangovar tarkibi va samaradorligi mustahkamlanib bormoqda.

Ta‘kidlash joizki, O‘zbekiston taraqqiyoti yangi bosqichining muhim jihatlaridan biri ichki va tashqi siyosatning uyg‘unligidir. Bugun hech bir davlat, hech bir xalq integratsiyasiz mustaqil rivojlana olmaydi. Yangicha qarash va yondashuvlar asosida olib borilayotgan ichki siyosat uning mantiqiy davomi sifatida mamlakat tashqi siyosatida ham o‘z ifodasini topmoqda.

¹ Хакимов О. Стратегия Нового Узбекистана продолжает Стратегию действий // Журнал «Экономическое обозрение». — №10 (262), 2021. — С. 5.

² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 10.05.2018 даги “Ўзбекистон Республикасида мажбурий меҳнатга барҳам беришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 349-сон қарори // <https://lex.uz/docs/3730223>

³ Saidolimov S. O‘zbekiston tashqi siyosati: Milliy manfaatlariga asoslangan faol va pragmatik yo‘l // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2021. —T.1.— №.11. — B. 344-351.

⁴ Қаранг: <https://daryo.uz/k/2022/07/25/songgi-6-yilda-qancha-odamga-ozbekiston-fuqaroligi-berilgani-malum-boldi/>

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги 2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони // <https://lex.uz/docs/5841063>

⁶ Саидов А. Янги Ўзбекистон Тараққиёт стратегияси — инсон кадрини улуглаган халқчил бош дастур // <https://yuz.uz/news/yangi-ozbekiston-taraqqiyot-strategiyasi--inson-qadrini-uluglagan-xalqchil-bosh-dastur>

Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "mamlakatimizning tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlari barqaror, adolatli va demokratik davlat qurishga, uning tashqi dunyoga ochiqqligini ilgari surishga hamda mintaqaviy va ko'p tomonlama o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan"⁷. Shu munosabat bilan ochiq, pragmatik va amaliy tashqi siyosat yuritish, dunyo davlatlari, ayniqsa, qo'shni davlatlar bilan yaqin do'stlik va hamkorlik aloqalarini mustahkamlash mamlakatimiz tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlariga aylandi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining yettinchi ustuvor yo'nalishi ham aynan shu maqsadlarni nazarda tutgan bo'lib, uning doirasida O'zbekistonning jahon miqyosidagi rolini oshirish, Markaziy Osiyoda turli sohalarida yaqin hamkorlikni yanada mustahkamlash, an'anaviy hamkor davlatlar bilan hamkorlikni yanada kengaytirish va iqtisodiy diplomatiyani mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar o'rin olgan⁸.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni yanada yaqinlashtirish maqsadida har yili Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlarini o'tkazishni ta'minlash, Mintaqaviy hamkorlik strategiyasini ishlab chiqish bo'yicha ishlarni boshlash, O'zbekistondagi chegara punktlarining salohiyatini oshirish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish va boshqa chora-tadbirlar shular jumlasidandir.

Markaziy Osiyoda mintaqaning barcha davlatlari bilan umumiy chegaraga ega yagona davlat sifatida O'zbekiston o'zining zamonaviy rivojlanishida mintaqani barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo'shnihilik makoniga aylantirishdan bevosita manfaatdor.

Mutaxassis olimlarning fikricha, Markaziy Osiyo xalqlarining uzoq muddatli tarixiy qo'shnihiligi mevalaridan biri ular uchun birdek qadrlil bo'lgan mushtarak qadriyatlar tizimining shakllangani, deyish mumkin. Aynan shu fazilat mintaqaviy integratsiyalashuvga qaratilgan sa'y-harakatlar yutug'ini kafolatlaydigan eng ishonchli asos bo'lib xizmat qiladi. Bunday qadriyatlar tizimi yagona diniy e'tiqod, "og'a-ini" tillar, o'zaro uyg'un falsafiy va badiiy tafakkur tarzi, me'morchilik, san'at va sportning deyarli barcha turlaridagi yaqinlik kabi

har qanday inson hayotining mazmun-mohiyatini belgilaydigan jihatlarni qamrab olgan⁹.

Binobarin, mintaqaning madaniy-tarixiy merosini "bo'lishish" mumkin emas. Umumiy tarix va din, umumiy suv yo'llari va transport yo'laklari Markaziy Osiyo xalqlarining umumiy merosidir. Shu bois O'zbekistonning mintaqadagi asosiy tashqi siyosiy maqsadi nizoli mojarolar salohiyatini kamaytirish, ishonchni mustahkamlash va o'zaro manfaatli aloqalarni o'rnatishdan iborat.

Tabiiyki, izchillik bilan ilgari surilgan konstruktiv ruhda yangi siyosiy tashabbuslar dunyo hamjamiyati tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi asosida BMT Bosh Assambleyasining 4 ta muhim rezolyutsiyalari qabul qilingani ham bu fikrni tasdiqlaydi¹⁰. Ayniqsa, 2018-yil 22-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash" rezolyutsiyasi qabul qilingani tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Rezolyutsiya mintaqada yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini yanada mustahkamlash uchun mustahkam poydevorni yaratdi. Mazkur xalqaro hujjatda Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqada tinchlik, barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlash, mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashdagi hal qiluvchi roli e'tirof etilgan¹¹.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilingandan so'ng (2017) Prezident Sh.Mirziyoyevning qo'shni davlatlarga ilk rasmiy tashriflari amalga oshirildi. Tashriflar chog'ida O'zbekiston rahbari mintaqadagi barcha dolzarb masalalar bo'yicha konstruktiv muloqotga tayyor ekanini namoyish etdi. Turkmaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston bilan strategik sheriklik munosabatlari yangi huquqiy baza bilan mustahkamlandi.

⁹ Комилов М.М. Кириш сўзи // Марказий Осиё давлатлари интеграцияси ва ҳамкорлигини ривожлантиришнинг ижтимоий ва сиёсий жиҳатлари: республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. — Тошкент: ЎзХИА, 2022. — Б. 5.

¹⁰ Saidolimov S. O'zbekiston tashqi siyosati: Milliy manfaatlariga asoslangan faol va pragmatik yo'l // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. — 2021. — T. : 1. — №. 11. — Б. 346.

¹¹ Укрепление регионального и международного сотрудничества в целях обеспечения мира, стабильности и устойчивого развития в Центрально-Азиатском регионе. 18.06.2018. <https://www.un.int/uzbekistan/fr/news/укрепление-регионального-и-международного-сотрудничества-в-целях-обеспечения-мира-стабильности>

⁷ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. — Тошкент: Ўзбекистон, 2022. — Б. 332.

⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сонли Фармони. 28.01.2022 й. <https://lex.uz/docs/5841063>

Natijada qisqa vaqt ichida qo'shni davlatlar bilan munosabatlarda mutlaqo yangi siyosiy vaziyat vujudga keldi, siyosiy ishonch darajasi yanada oshdi. Ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun yangi asoslar yaratildi, qo'shni davlatlar bilan davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish, suv-energetika muammolarini hal etish bo'yicha muzokaralar jarayoni faollashdi.

Professor S.Saidolimovning qayd etishicha, chegara punktlaridagi to'siqlarning olib tashlanishi natijasida O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari fuqarolari o'rtasida aloqalar tubdan yaxshilandi. Agar besh yil oldin O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi chegara punktlarida bir sutkada 200-300 fuqaro o'tgan bo'lsa, hozirgi kunda bu raqam 30 000 nafarga yetdi. Tojikiston bilan chegara punktlarini ham sutkasiga 20 000 nafar fuqaro kesib o'tmoqda¹².

Davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish borasida O'zbekiston delegatsiyasi tomonidan qo'shni mamlakatlar bilan jami 63 ta, jumladan, Qozog'iston bilan 17 ta, Qirg'iziston bilan 27 ta, Tojikiston va Turkmaniston bilan 9 martadan muzokaralar olib borildi. Natijada Qozog'iston bilan davlat chegarasi chiziqlarini delimitatsiya qilish ishlari yakunlandi. Qirg'iziston bilan chegaraning 95 foiz qismi bo'yicha kelishuvga erishildi. Tojikiston bilan chegaraning 99,9 foiz qismi kelishildi¹³.

Mintaqa davlatlari bilan ikki tomonlama hamkorlik dinamikasi ham yangi bosqichga ko'tarildi. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining oliy darajadagi ikki tomonlama uchrashuvlari, telefon orqali muloqotlari, rasmiy va amaliy tashriflari ko'paydi.

2020-yilda tashqi siyosat va iqtisodiy faoliyat bo'yicha davlat organlari tomonidan 35 ta oliy darajadagi tashriflar, shuningdek, turli tadbirlar o'tkazildi. Do'stlik va yaxshi qo'shnichilikni mustahkamlash jarayonida "xalq diplomatiyasi" faol olib borilmoqda. Xususan, fan va san'at namoyandalari, tadbirkorlar, madaniyat va din arboblari, turizm va sport tashkilotlari, jamoat birlashmalari xodimlari ishtirokida 90 dan ortiq turli uchrashuvlar, video konferensiyalar, davra suhbatlari va shu kabi boshqa tadbirlar o'tkazildi¹⁴.

¹² Саидолимов С.Т. Ўзбекистон ташқи сиёсати: туб миллий манфаатлар асосида қурилган фаол ва прагматик йўл // Ўзбекистон энг янги тарихининг долзарб масалалари. 2021. – №1-2. – Б. 10.

¹³ Ўша манба. – Б. 10-11.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2020-yildagi faoliyati haqida hisobot. 09.01.2021. <https://mfa.uz/uz/press/news/2021/ozbekiston-respublikasi-tashqi-ishlar-vazirligining-2020-yildagi-faoliyati-haqida-hisobot---29088>

Buning natijasida mintaqadagi ikki va ko'p tomonlama hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, 2017–2019-yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan o'rtacha yillik tovar ayirboshlash hajmi 50 foizdan ortiq o'sdi va 5,2 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. 2020-yil yakuniga ko'ra, global pandemiyaga qaramay, O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan umumiy tovar ayirboshlash hajmi 5 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Jumladan, O'zbekistonning umumiy tashqi savdo aylanmasida qo'shni davlatlarning ulushi 2019-yildagi 12,4 foizdan 2020-yilda 13,6 foizga oshgan, shundan Qozog'iston ulushi 61 foiz, Qirg'iziston – 18,2 foiz, Turkmaniston – 10,6 foiz va Tojikiston ulushi 10,2 foizga to'g'ri keladi¹⁵.

Shunga ko'ra, Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarning yaxshilanishi mintaqaning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qildi. Xususan, 2017–2020-yillarda O'zbekiston bilan mintaqada davlatlari o'rtasida umumiy qiymati qariyb 75 milliard dollarga teng 300 dan ortiq bitim va shartnomalar imzolandi¹⁶.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston – Qozog'iston strategik sherikligi Markaziy Osiyoda mintaqaviy muloqotni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. 2021-yil 6-dekabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyevning Qozog'istonga tashrifi yakunlari bo'yicha Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi deklaratsiya imzolangan Markaziy Osiyoda so'nggi yillardagi muhim siyosiy voqea bo'ldi. Hujjatda ikki mamlakatning ko'p qirrali sheriklik salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishdagi hayotiy va uzoq muddatli milliy manfaatlar o'z ifodasini topgan. Mamlakat rahbarlari Oliy davlatlararo Kengashi, Parlamentlararo hamkorlik kengashi va Tashqi ishlar vazirlari kengashini tashkil etish, shu orqali tashqi siyosat sohasida ham yaqindan hamkorlik qilish, Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lida o'zaro manfaatlarni uyg'unlashtirish hamda mintaqaviy yaqinlashuv g'oyalarini ilgari surish niyatida ekanliklarini bildirdilar. Ikki davlat rahbarlari mavjud salohiyatdan to'liq foydalanish maqsadida Markaziy Osiyo davlat rahbarlari sammiti formatini

¹⁵ Туляков Э., Хакимов Ф. Марказий Осиё давлатлари билан дўстона ҳамкорлик – Ўзбекистон ташқи сиёсий фаолиятининг устувор йўналиши. 03.04.2021. <https://strategy.uz/index.php?news=1278&lang=uz2>

¹⁶ Кадыров А. Ключевые приоритеты внешней политики обновленного Узбекистана. 29.07.2020. <http://www.isrs.uz/ru/maqolalar/klucevye-prioritety-vnesnej-politiki-obnovlennogo-uzbekistana>

takomillashtirish bo'yicha maqsadli ish olib borishga kelishib oldilar¹⁷.

So'nggi yillarda Markaziy Osiyoda integratsiya masalalari yana kun tartibidan muhim o'rin egallab bormoqda. Bu jarayonlarning dolzarbligi bipolyar davr tugaganidan keyin shakllanayotgan xalqaro munosabatlarning yangi arxitekturasi, mintqa davlatlari o'rtasida birgalikdagi harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini oshirmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "mamlakatimizda kechayotgan tub yangilanishlar, izchil va faol tashqi siyosat, ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasidagi yaqin qo'shnichilik muhiti tobora mustahkamlanayotgani yurtimizning xalqaro nufuzini yanada oshirmoqda"¹⁸. Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan o'zaro yaqinlashish siyosati nafaqat Markaziy Osiyoda yaxshi qo'shnichilik muhitini mustahkamlashga, balki mintqa davlatlari tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlovga ham sazovor bo'lmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida mustaqil taraqqiyotning dastlabki bosqichiga xos bo'lgan, har doim ham sog'lom bo'lmagan yetakchilik uchun o'zaro raqobat o'rnini bir-biriga nisbatan katta ishonch muhiti egallab bormoqda.

Keyingi yillarda Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlari ikkita kuchli impuls olingan bo'lsa, ularning bosh sababkori O'zbekiston Respublikasi bo'ldi. **Birinchi impuls** mamlakatimiz tashqi siyosatining Markaziy Osiyo vektori ustuvorligini rasman e'lon qilgani bilan bog'liq kechdi. Qolaversa, yangi rahbariyat hokimiyatga kelganidan buyon o'tgan davr mobaynida O'zbekiston bu maqsadga erishish uchun izchil intilib kelmoqda. **Ikkinchi impuls** 2018-yil 15-mart kuni Qozog'istonning Ostona shahrida o'tkazilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi norasmiy uchrashuvi bo'lib, u mintqa davlatlari umumiy taraqqiyotining yangi mexanizmini shakllantirishga asos soldi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston rahbarlari va Turkmaniston parlamenti spikeri uchinchi tomonlar ishtirokisiz ilk bor uchrashib, mintaqaviy hamkorlik va xavfsizlik masalalarini muhokama qildilar, shuningdek, Afg'onistondagi vaziyat bo'yicha yagona pozitsiyani e'lon qildilar.

¹⁷ Ўзбекистон ва Қозоғистон — иттифокдош давлатлар. 06.12.2021. <https://president.uz/uz/lists/view/4809>; Ўзбекистон ва Қозоғистон Президентларининг музокаралари мамлакатларимиз ҳамкорликни кенгайтиришга тайёрлигини тасдиқлади. 06.12.2021. <https://president.uz/uz/lists/view/4808>

¹⁸ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. — Тошкент: Ўзбекистон, 2022. — Б. 330.

Markaziy Osiyo atrofidagi kuch markazlarida turli gumonlar yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik uchun o'shanda mintqa davlatlari maxsus tashkilot tuzishdan tiyilishgan edi. Bugungi kunda an'anaviy bo'lib qolgan bu uchrashuvlar "Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvi" sifatida xalqaro e'tirofga erishdi. Hozirgacha ushbu sammitning uchta yig'ilishi bo'lib o'tdi, u Markaziy Osiyoning yangi mustaqil davlatlarining mintaqaviy hamkorligini va o'zaro integratsiyasini mustahkamlashga xolisona xizmat qilmoqda.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo davlatlarining norasmiy sammitini tashkil etish g'oyasini O'zbekistonning yangi rahbari ilk bor sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi, 2017-yil noyabr oyida Samarqand shahrida BMT shafeligida o'tkazilgan "**Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik**" mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqlarida ilgari surgan edi¹⁹. Prezident Sh.Mirziyoyev mintaqaning dolzarb muammolarini birgalikda hal etish borasidagi sa'y-harakatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining alohida kun tartibini nazarda tutmaydigan muntazam norasmiy maslahatlashuvlari formatini taklif qilgan edi. Bu tashabbus mintaqaning barcha davlatlari va xalqaro tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Markaziy Osiyo davlatlarining barqarorligi va hamjihatligi, birinchidan, qardosh xalqlar farovonligiga xizmat qilsa, ikkinchidan, mintaqaning investitsion jozibadorligini oshirish, xorijiy sheriklar bilan hamkorlik qilish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Xulosa. Umumlashtiruvchi xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, Markaziy Osiyo mintaqasining yagona tuzilmaga integratsiyalashuv g'oyasi bugungi kunda global xarakterdagi yangi tahdidlar qarshisida xavfsiz va barqaror rivojlanishning imperativlaridan biriga aylanib bormoqda. Markaziy Osiyoni xalqaro tizimning yangi shakllanayotgan kichik mintaqasi sifatida ko'rib chiqish tendensiyasi ortib borayotgani shundan dalolat bermoqda.

So'nggi paytlarda postsovet makonining ayrim qismlarida kuzatilgan ijtimoiy-gumanitar va

¹⁹ Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев БМТ Бosh Assambleyasining 72-сессиясида нутқ сўзлади. 20.09.2017. <https://president.uz/uz/lists/view/1063>; Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Самарқанд шаҳрида ўтган "Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик" мавзусидаги халқаро конференцияда сўзлаган нутқи. 10.11.2017. <https://president.uz/uz/lists/view/1227>

harbiy-siyosiy xarakterdagi xavotirli tendensiyalarni hisobga olganda, Markaziy Osiyo davlatlari bugungi kunda dolzarb bo'lib borayotgan mintaqaviy hamkorlik kontekstida o'z yo'l xaritalarini qayta ko'rib chiqish zaruriyati har qachongidan ham ortmoqda.

O'zbekiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyo davlatlarining ustuvor yo'nalish sifatida e'lon

qilinishi muhim geosiyosiy jarayonga aylandi. Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlarining ilqlashganligi va dolzarbligi bipolyar davr tugaganidan keyin shakllanayotgan xalqaro munosabatlarning yangi arxitekturasi, mintaqa davlatlari o'rtasida birgalikdagi harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini oshirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ҳакимов О. Стратегия Нового Узбекистана продолжает Стратегию действий // Журнал «Экономическое обозрение». – №10 (262), 2021.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 10.05.2018 даги “Ўзбекистон Республикасида мажбурий меҳнатга барҳам беришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 349-сон қарори // <https://lex.uz/docs/3730223>
3. Saidolimov S. O'zbekiston tashqi siyosati: Milliy manfaatlariga asoslangan faol va pragmatik yo'l // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2021. – T.1. – №.11.
4. <https://daryo.uz/k/2022/07/25/songgi-6-yilda-qancha-odamga-ozbekiston-fuqaroligi-berilgani-malum-boldi/>
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони // <https://lex.uz/docs/5841063>
6. Саидов А. Янги Ўзбекистон Тараққиёт стратегияси – инсон кадрини улуғлаган халқчил бош дастур. 28.01.2022. <https://yuz.uz/news/yangi-ozbekiston-taraqqiyyot-strategiyasi--inson-qadrini-uluglagan-xalqchil-bosh-dastur>
7. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2022.
8. Комилов М.М. Кириш сўзи // Марказий Осиё давлатлари интеграцияси ва ҳамкорлигини ривожлантиришнинг ижтимоий ва сиёсий жиҳатлари: республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. – Тошкент: ЎзХИА, 2022.
9. Укрепление регионального и международного сотрудничества в целях обеспечения мира, стабильности и устойчивого развития в Центральном-Азиатском регионе. 18.06.2018. <https://www.un.int/uzbekistan/fr/news/укрепление-регионального-и-международного-сотрудничества-в-целях-обеспечения-мира-стабильности>
10. Саидолимов С.Т. Ўзбекистон ташқи сиёсати: туб миллий манфаатлар асосида қурилган фаол ва прагматик йўл // Ўзбекистон энг янги тарихининг долзарб масалалари. – № 1-2, 2021.
11. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2020-yildagi faoliyati haqida hisobot. 09.01.2021. <https://mfa.uz/uz/press/news/2021/ozbekiston-respublikasi-tashqi-ishlar-vazirligining-2020-yildagi-faoliyati-haqida-hisobot---29088>
12. Туляков Э., Хакимов Ф. Марказий Осиё давлатлари билан дўстона ҳамкорлик – Ўзбекистон ташқи сиёсий фаолиятининг устувор йўналиши. 03.04.2021. <https://strategy.uz/index.php?news=1278&lang=uz2>
13. Кадыров А. Ключевые приоритеты внешней политики обновленного Узбекистана. 29.07.2020. <http://www.isrs.uz/ru/maqolalar/klucevye-prioritety-vnesnej-politiki-obnovlennogo-uzbekistana>
14. Ўзбекистон ва Қозоғистон – иттифокдош давлатлар. 06.12.2021. <https://president.uz/uz/lists/view/4809>; Ўзбекистон ва Қозоғистон Президентларининг музокаралари мамлакатларимиз ҳамкорликни кенгайтиришга тайёрлигини тасдиқлади. 06.12.2021. <https://president.uz/uz/lists/view/4808>
15. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида нутқ сўзлади. 20.09.2017. <https://president.uz/uz/lists/view/1063>; Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Самарқанд шаҳрида ўтган “Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик” мавзусидаги халқаро конференцияда сўзлаган нутқи. 10.11.2017. <https://president.uz/uz/lists/view/1227>